

DAVLAT HOKIMIYAT TIZIMIDA PARLAMENTNING ROLI

Muratova Ra'no Zarifjon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti siyosatshunoslik 1-kurs B patok talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvida parlamentning roli, uning tarixiy kelib chiqishi, funksiya va vakolatlari, yunikomeral va bikomeral turlari, parlamentlarda saylov jarayoni hamda O'zbekiston Respublikasi parlamenti boshqa davlatlar parlamentiga qiyoslangan holda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: parlament funksiyalari, vakolatlari, yunikomeral parlament, bikomeral parlament, parlamentda saylovlar

KIRISH. Parlament – fransuz tilidan olingan bo'lib, “parler”, ya'ni “gapirmoq”, “gapiradigan joy” degan ma'noni anglatadi. Hammamizga ma'lumki, ilk parlament 1265-yil Angliya davlatida tuzilgan va dastlabki parlamentlarning vazifasi faqat soliqlarni belgilash va qiroлга murojaatlar bilan chiqish bo'lgan. Bu paytda Angliyadagi parlament tarkibida baronlardan tashqari, ruhoniylar, har bir graflikdan ikkitadan ritsar hamda yirik shaharlardan ikkitadan vakillar to'plangan. Bora-bora parlamentning tarkibi kengayib, funksiya va vakolatlari ko'payib borgan. Bugungi kelib esa u davlat hokimiyatining asosiy institutlaridan biri hisoblanib, asosiy vazifalaridan biri xalq nomidan qonun chiqarishdir. Ushbu maqola davomida parlament instituti tarixi va bugungi kundagi faoliyati haqida to'liqroq ma'lumot beriladi.

Parlament tarixiga nazar tashlasak, u qadimgi Afinada polislar siyosatini hal qilish uchun uyushtirgan yig'ilishlarga borib taqaladi. Oqsoqollar kengashi, Xalq majlisi kabi tashkilotlar mazmunan parlament vazifasini bajargan. Biroq bu davrdagi parlament rasmiy maqomda emas edi. Zamonaviy parlament, yuqorida aytib o'tilganidek, dastlab Angliya davlatida tashkil topgan. Tashkil topilgan paytda u yunikomeral, ya'ni bir palatali bo'lgan. So'ng XIV asrda, aniqrog'i 1343-yildan boshlab esa bikomeral (ikki palatali) parlamentga aylangan. Parlament tashkil qilinib to bugungi kungacha rivojlanib kelgan ekan u haqida yuzlab olimlar o'z fikrlarini va takliflarini bildirgan. Masalan, XIX asrda yashab o'tgan Angliya parlamenti a'zosi John Styuart Mill “xalq vakili” demokratiyaning ko'zi, qulog'i va ovozi bo'ladi deb fikr bildirgan. Ya'ni parlament a'zolari hamma ishini xalq nomidan uning kelajagini o'ylab xalqning foydasiga qilishi lozim.

Bugungi kunga kelib aksariyat davlatlar parlamenti bikomeral ko'rinishda faoliyat olib bormoqda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ham. O'zbekistonda parlament 1990-yil tashkil topgan bo'lib, dastlab u Oliy Kengash deb nomlanib bir palatali bo'lgan. Keyinchalik, ya'ni 1995-yildan boshlab Oliy Majlis deb atalgan. Lekin parlamentning ikki palatali bo'lishi 2005-yildan boshlanadi va hozirgi kungacha u ikki palata: Senat va Qonunchilik palatalaridan iborat. Ushbu ikkala palataning tarkibiy qismi qonun tomonidan belgilangan holda tashkil qilingan bo'lib, hozirda yangilanayotgan Konstitutsiyada Senat tarkibi 100 nafardan 65 nafarga tushirilishi ko'zda tutilmoqda. Odatda, parlamentning uchta funksiyasi mavjud bo'lib: qonunchilik, vakillik va vakillikdir. Ammo tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, dunyoda hali hech bir davlat parlamentida ushbu uch funksiyani bir vaqtning

o‘zida ko‘rilgan emas. Masalan, Polsha: “Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Seym amalga oshiradi, Seym Konstitutsiyaga binoan Vazirlar Mahkamasi ustidan nazoratni amalga oshiradi”[1]. Yana bir misol tariqasida Yaponiya mamlakati: “Parlament hokimiyatining oliy va yagona qonun chiqaruvchi organi hisoblanib, ikki palata xalq vakili sifatida saylanuvchi shaxslardan iborat”[2]. O‘zimizning mamlakat misolida ko‘rsak ham: “ O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi”[3].

Parlament saylovlari, asosan, ikki turda, ya‘ni majoritar va proporsional usullarda bo‘lib o‘tadi. Shaxsan O‘zbekiston Respublikasida parlament saylovlari ikkala palatada ham majoritar usulda amalga oshiriladi. Bunday saylovda saylovchilar nomzodlarning qilgan ishlari, xizmatlari, dasturlarini taqqoslab o‘ziga ma‘qulini tanlaydilar. Bu tizimda ham okruglarda nomzodlar, asosan, partiya nomidan qatnashadi, lekin yakka asosda ovoz oladi, ovoz partiya uchun emas shaxsan nomzodga beriladi. Majoritar tizimning ham ko‘rinishlari har xil. Uning bor ko‘rinishida boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovoz olgan nomzod saylangan hisoblanadi va qancha ovoz olgani muhim emas. Bu ko‘rinish AQSh, Hindiston va Rossiyada qo‘llaniladi. Masalan, Angliya qonunchiligida bir okrugdan faqat bir kishi nomzod qo‘ygan bo‘lsa, u saylovsiz saylanish huquqiga ega. Yana ba‘zi bir mamlakatlar amaliyotidahar ikki saylov tizimidan ham foydalanishi kuzatiladi. Misol tariqasida Germaniya parlamentining yuqori palatasida majoritar tizim asosida, quyi palatasida esa proporsional tizim asosida saylovlar bo‘lib o‘tadi.

Har bir davlat parlamentining vakolatlari uning Asosiy qonunida yoki parlament to‘g‘risidagi qonunlarida belgilab beriladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi parlamentining vakolatlari, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, so‘ng “O‘zbekiston Respublikasi Senati to‘g‘risidagi” va “O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi to‘g‘risidagi” qonunlarida belgilab qo‘yilgan. Angliya davlatida ham “Parlament to‘g‘risidagi” qonun asosida parlament o‘z faoliyatini olib boradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat hokimiyatida parlament institutining paydo bo‘lishi o‘ziga xos jarayon bo‘lib, bugungi kunda davlat boshqaruvida uning bajarayotgan funktsiya va vakolatlari yuqori va kengligidan qanchalik muhim bir institutligini anglab olish qiyin emas va so‘ng so‘z sifatida shuni ham ta‘kidlab o‘tish joizki, qaysi davlatning parlamenti yaxshi faoliyat ko‘rsatsa, o‘sha davlatga xalqning legitimligi ham oshib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Polsha Xalq Respublikasi Konstitutsiyasi. 1997y. 95-modda.
2. Yaponiya Konstitutsiyasi. 1947y. 41-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992y. 76-modda.